

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIIYA PEDAGOGIKASI MILLIY  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.28/30.07.2024. Ped.165.01 RAQAMLI ILMIIY KENGASH  
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI

SAIDOVA KAMOLA USKANBAYEVNA

SHARQ VA G'ARB PEDAGOGIKASIGA KOMPARATIVISTIK  
YONDASHUV KONTEKSTIDA YOSHLARNI TARBIIYALASHNING  
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.01 - Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

PEDAGOGIKA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI

Toshkent - 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of the abstract of the dissertation of the doctor of science (DSc)

<b>Saidova Kamola Uskanbayevna</b> Sharq va G'arb pedagogikasiga komparativistik yondashuv kontekstida yoshlarni tarbiyalashning mexanizmlarini takomillashtirish.....	3
<b>Saidova Kamola Uskanbayevna</b> Совершенствование механизмов воспитания молодёжи в контексте компаративного подхода к педагогике Востока и Запада.....	33
<b>Saidova Kamola Uskanbayevna</b> Improving the mechanisms of youth education in the context of a comparative approach to the pedagogy of the East and West .....	65
<b>E'lon qilingan ishlar ro'uxati</b> Список опубликованных работ	71

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIIYA PEDAGOGIKASI MILLIY  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.28/30.07.2024.Ped.165.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI

SAIDOVA KAMOLA USKANBAYEVNA

SHARQ VA G'ARB PEDAGOGIKASIGA KOMPARATIVISTIK  
YONDASHUV KONTEKSTIDA YOSHLARNI TARBIIYALASHNING  
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.01 - Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

PEDAGOGIKA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.DSc/Ped884-sonli raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtorferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida va "ZiyoNET" Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Rasmiy opponenlar:**

**Xusanova Sumbul Islamovna**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Xodjayev Begzod Xudoyberdiyevich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Sharipov Abdurahim Ziyoddinovich**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Chirchiq davlat pedagogika universiteti**

**Yetakchi tashkilot:**

Dissertatsiya himoyasi Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28/30.07.2024.Ped.165.01 raqamli ilmiy kengashning 15.11.2025 kuni soat 10:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Toshkent shahar, Olmazor tumani Ziyo ko'chasi, 6-uy). Tel.: (+99855) 511-02-69; faks: (+99855) 511-02-69; e-mail: [info@uzpfiti.uz](mailto:info@uzpfiti.uz).

Dissertatsiya bilan Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (12 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: Toshkent shahar, Olmazor tumani Ziyo ko'chasi, 6-uy. Tel.: (+99855) 511-02-69; faks: (+99855) 511-02-69.

Dissertatsiya avtorferati 2025 yil «05» 11.2025 kuni tarqatildi.  
(2025-yil «05» 11.2025 dagi 12 raqamli reyestr bayonnomasi)



**M.Quronov**  
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

**O.U.Musurmonkulov**  
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim v.b.

**Sh.Q.Mardonov**  
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

**KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda shiddatli globallashtirish sharoitida tarbiyaning an'anaviy shakllari eroziyasi, qadriyatlar inqirozi, madaniy identifiklikning susayishi va ta'limning universallashuvi kuzatilmoqda. Bu esa pedagogika fanida yoshlar tarbiyasiga oid mavjud paradigmalarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Aynan bu Sharq va G'arbdagi tarbiya an'analarning komparativistik orqali amalga oshirilishi mumkin, bu esa G'arb va Sharq yondashuvlarini o'zida mujassamlashtirgan, ma'naviy o'zini o'zi belgilash va ijtimoiy mas'uliyatga qodir shaxsni shakllantirishga hissa qo'shadigan tarbiyaning yangi modelini ishlab chiqishga imkon beradi. Bu esa Sharq va G'arb pedagogikasiga komparativistik yondashuv kontekstida yoshlarni tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish orqali respublikamizning inson kapitalini keyinchalik oshirish uchun ham dolzarbdir.

Dunyoning yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari va oliy ta'lim muassasalarida Sharq va G'arb tarbiya pedagogikasi komparativistik sohasida keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunda mazkur tadqiqotlarda turli madaniyatlarda tarbiyalash tizimlari, yoshlarda shakllantirilayotgan qadriyatlar, global kompetensiyalar doirasida madaniyatlarga kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishga alohida urg'u berilgan. Shuningdek, Sharq va G'arbdagi tarbiya modellarning komparativistik orqali axloqiy ongini shakllantirishga yondashuvlar, an'anaviy tarbiya shakllarining zamonaviy ta'lim amaliyotiga integratsiyasi tahlil qilingan. Bundan tashqari, barqaror rivojlanish sharoitida ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha ustlab yondashuvlar va tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida yoshlar tarbiyasining milliy strategiyalari tadqiq etilmoqda. Biroq, aynan Sharq va G'arb pedagogikasiga komparativistik yondashuv kontekstida yoshlarni tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirishda sezilarli bo'shliq kuzatilib, bu sohada keyingi pedagogik va ijtimoiy-gumanitar tadqiqotlarning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasida yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yanada takomillashtirish, ta'lim tizimini rivojlantirish va uni jahon ta'lim makoniga integratsiyalash, shuningdek, Sharq va G'arbdagi tarbiya pedagogikasi komparativistik platformasini tashkil etuvchi millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni yanada mustahkamlash strategik muhim vazifalardan biri hisoblanadi. "Davr farzandlarini yuksak fazilati insonlar etib tarbiyalash usha zamon ma'rifatparvarlarining xayotiy va fukarolik e'tiqodiga aylandi". Bu esa Yangi O'zbekistonning muhim g'oyaviy platformasi bo'lib, nafaqat pedagogika, balki boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida tadqiq etish uchun ham muhimdir, chunki tarbiya muammosi bugungi kunda fanlararo xususiyatga ega. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti, Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Respublika Ma'naviyat va

ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti va boshqa bir qator ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan olib borilmoqda.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sonli, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3080-sonli, 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-sonli qarorlarida va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2021-yil 18-yanvardagi 23-sonli "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida hamda soha bo'yicha qabul qilingan boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Mavzuning respublikada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VI. "Jamiyatni isloh etish va modernizatsiyalash jarayonida milliy, adabiy, tarixiy va diniy qadriyatlar, milliy g'oya, estetik badiiy tarbiya, san'at, moddiy va nomoddiy madaniy meros, milliy davlatchilik tarixini tadqiq etish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi?** Sharq va G'arbda tarbiya pedagogikasi komparativistikasi sohasidagi keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar bilan xorijiy mamlakatlarning turli ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, xususan, Pekin pedagogika universiteti qoshidagi Xalqaro va komparativistik ta'lim instituti (Xitoy), Gonkong universiteti qoshidagi Komparativistik ta'lim tadqiqotlari markazi (Xitoy), Oksford universiteti qoshidagi Komparativistik va xalqaro ta'lim markazi (Buyuk Britaniya), Ontario ta'lim tadqiqotlari instituti qoshidagi Qiyosiy, xalqaro va rivojlantiruvchi ta'lim markazi (Kanada), Kaliforniya universiteti qoshidagi Insonni komparativistik bilish laboratoriyasi (AQSH), Kassel universiteti qoshidagi Oliy ta'lim tadqiqotlari xalqaro markazi (Germaniya), Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi (Ukraina), Rossiya ta'lim akademiyasi (Rossiya Federatsiyasi) shug'ullanmoqda.

Sharq va G'arb tarbiya pedagogikasi komparativistikasi oid jahonda olib borilgan tadqiqotlarda quyidagi ilmiy natijalar olingan: ta'lim tizimlarini komparativistik tahlil qilish mezonlari va yondashuvlari, shuningdek, ta'limning mahalliy an'analarini hisobga olgan holda Osiyo, Yevropa va Amerika

mamlakatlari ta'lim siyosatini talqin qilish modellarini ishlab chiqilgan (Pekin pedagogika universiteti qoshidagi Xalqaro va komparativistik ta'lim instituti, Xitoy); zamonaviy globallasuv va madaniy o'zgarishlar davrida an'anaviy tarbiya modellarining ta'siri ochib berilgan (Oksford universiteti qoshidagi Komparativistik va xalqaro ta'lim markazi, Buyuk Britaniya); global taraqqiyot va an'anaviy ta'lim paradigmalari qayta ko'rib chiqish jarayonlarida tarbiyaning rolini tahlil qilishning fanlararo yondashuvlari ishlab chiqilgan (Ontario ta'lim tadqiqotlari instituti qoshidagi Qiyosiy, xalqaro va rivojlantiruvchi ta'lim markazi, Kanada); rasmiy ta'limning kognitiv jarayonlarga, aqliy qobiliyatlar va ma'naviyatning o'sishiga ta'siri ochib berilgan (Kaliforniya universiteti qoshidagi Insonni komparativistik bilish laboratoriyasi, AQSH); tarbiyaning talabalar qadriyatlarini tuzilmalari va madaniyatiga ta'siri mexanizmlari ishlab chiqilgan (Kassel universiteti qoshidagi Oliy ta'lim tadqiqotlari xalqaro markazi, Germaniya); ta'lim darajasi bo'yicha tizimlashtirilgan tarbiya tizimlarini komparativistik tahlil qilish metodologiyasi ishlab chiqilgan (Ukraina Milliy pedagogika fanlari akademiyasi, Ukraina); tarbiya strategiyalari va ta'lim trayektoriyalarini taqqoslashning sotsiologik metodologiyasi ishlab chiqilgan (Rossiya ta'lim akademiyasi, Rossiya Federatsiyasi); Sharq va G'arb pedagogikasiga komparativistik yondashuv asosida yoshlar tarbiyasini takomillashtirishning asosiy mexanizmlari ochib berilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston).

Jahon oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida Sharq va G'arb tarbiya pedagogikasi sohasida quyidagi ustuvor yo'nalishlarda komparativistik tadqiqotlar olib borilmoqda: Sharq va G'arb yondashuvlari doirasida tarbiyaning axloqiy asoslari komparativistikasi; madaniyatlararo tarbiya pedagogikasining identifiklik, bag'rikenglik va madaniyatlararo muloqotni shakllantirishga ta'siri; tarbiya jarayoniga Sharq va G'arb pedagogik yondashuvlari asosida global tarbiya konsepsiyasi; Sharq va G'arbda oilaviy, diniy, maktab va maktabdan tashqari tarbiya formatlari; globallasuv va raqamlashtirish davrida an'anaviy tarbiya strategiyalarining transformatsiyasi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Turli madaniyatlarda yoshlarni tarbiyalash mexanizmlarini komparativistik tadqiq etish muammosi uchun fundamental bazisni butun jahonga taniqli bo'lgan Konfutsiy, Mo-tsi, Aflotun, Aristotel, Plotin, Ibn Sino, Averroes, Ibn Xaldun, Alisher Navoiy, Din Yafey, Tao Fuyuan, Lyu Shuyan, Van Men, K.Yaspers, Geigel, I.Kant va boshqa olimlar, mutafakkirlar, faylasuf va pedagoglarning ishlari tashkil etadi.

Jahon pedagogik komparativistikasida yoshlar tarbiyasi muammolarini tadqiq etish bilan B.Zhang<sup>1</sup>, R.Alexander<sup>2</sup>, M.Balsamo<sup>3</sup>, G.G.Bear<sup>4</sup>, W.Chen, D.Elchert,

<sup>1</sup> A Comparison between Pedagogical Approaches in UK and China / Bowen Zhang, PhD researcher in Manchester University // Journal of Comparative & International Higher Education, 2021, 13(5), p. 232-242.

<sup>2</sup> Alexander Robin. Culture and Pedagogy: International Comparisons in Primary Education. - Oxford: Blackwell, 2001.

<sup>3</sup> Balsamo M. The Influence of the Renaissance on Current Teaching Methods. In BSU Honors Program Theses and Projects. Item 208. 2017. Available at: [http://vc.bridgew.edu/honors\\_proj/208](http://vc.bridgew.edu/honors_proj/208).

<sup>4</sup> <https://fe-english.bnu.edu.cn/003-c-1-47.htm>; <https://cerc.edu.hk.hk/>; <https://www.education.ox.ac.uk/research/research-groups/policy-economy-and-society/comparative-and-international-education/>; <https://www.oise.utoronto.ca/oidoc>; <https://lche.ucsd.edu/>; <https://www.uni-kassel.de/forschung/en/incher/international-center-for-higher-education-research.html>; <https://maps.gov.au/>; <https://nusacademdu.ru/>.

A. Asikin-Garmager<sup>7</sup>, T. Kuchai<sup>8</sup>, G. Muyunda, L. Yue<sup>9</sup>, O.S. Kogan<sup>10</sup> va boshqalar shug'ullanishgan. Mazkur tadqiqotchilar muayyan madaniyatlar doirasida pedagogik yondashuvlarni, shuningdek, pedagogika va madaniyatning korrelyatsiyasini, turli tarixiy davrlarning tarbiyaviy-pedagogik amaliyotlariga ta'sirini ta'limning mintaqaviy xususiyatlariga qiyosiy tadqiq etishni amalga oshirganlar. Shu bilan birga, ushbu mutaxassislar ishlanmalarida pedagogika va falsafa doirasida komparativistikaning ilmiy-metodologik vositalariga murojaat qilish kuzatiladi.

MDH mintaqasida tarbiya pedagogikasida komparativistik yondashuv masalalari bilan O. Galus, L. Shaposhnikova<sup>11</sup>, N. Sadova<sup>12</sup>, M. Chepil<sup>13</sup>, A. Kusainov, N. Yeseeva<sup>14</sup>, A. Donbayeva, G. Tanabayeva, J. Jamasheva, Sh. Yermaxanova, M. Yermaxanov<sup>15</sup>, O. Beregovaya<sup>16</sup>, A. Pleshakova<sup>17</sup>, N. Simushkina<sup>18</sup>, M. Volovikova<sup>19</sup> va boshqalar shug'ullangan. Mazkur mutaxassislar ishlarida komparativistik pedagogikaning nazariy-metodologik asoslari ko'rib chiqilgan va ta'limning muayyan tizimlarini qiyosiy tadqiq etishga tatbiq etilgan.

Mamlakatimiz olimlarining qiyosiy pedagogika va komparativistik tadqiqotlar sohasidagi izlanishlarda akademik X. Ibraimov<sup>20</sup>, G. Shoumarov, M. Quronov<sup>21</sup>, Sh. Shodmonova, N. G. Komilova, P. Ergashev<sup>22</sup>, Yu. Abdullayev<sup>23</sup>, Z. Azizova<sup>24</sup>,

K. Otamirzayeva<sup>25</sup>, M. Mutalipova<sup>26</sup>, R. Karimov<sup>27</sup>, R. Bekbayev<sup>28</sup> kabi mutaxassislar nomlari alohida ajratib ko'rsatilgan. Yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning tadqiqotlarida ta'lim jarayonini turli darajalarda komparativistik tadqiq etishning turli jihatlari tahlil qilingan. Biroq Sharq va G'arb pedagogikasida komparativistik yondashuv asosida yoshlarni tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish masalasi deyarli ishlab chiqilmagan va kam o'rganilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy-tadqiqot rejasining "Pedagogika tarixining zamonaviy nazariy va metodologik muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Sharq va G'arb pedagogikasiga komparativistik yondashuv kontekstida O'zbekiston Respublikasi yoshlarini tarbiyalashning yangi mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Sharq va G'arb pedagogikasiga komparativistik yondashuvning nazariy-metodologik asoslarini chuqur tahlil qilish, turli madaniy-tarixiy sharoitda shakllangan pedagogik nazariyalarni, qadriyatlar va tarbiya mexanizmlarini Yangi O'zbekiston tarbiya paradigmasi nuqtayi nazaridan aniqlashirishning ilmiy asoslarini belgilash;

Sharq va G'arb pedagogikasi kontekstida yoshlarni tarbiyalash strategiyalarini tahlil etish, madaniyatlararo kompetentsiyaga asoslangan dasturiy modellarni yaratish hamda qadriyatli tarbiya tizimini komparativistik yondashuvning didaktik imkoniyatlari asosida takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqish;

yoshlarni tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash va tahlil qilish, Sharq va G'arb pedagogik merosi, milliy an'analarda global ta'lim tendensiyalarining qiyosiy o'rganilishi asosida ta'lim dasturlari, o'qituvchi tayyorgarligi, oila-maktab-mahalla hamkorligi va raqamli ta'lim muhiti bilan muvofiqlashtirish mexanizmlarini taklif etish;

tarbiya mexanizmlarining samaradorligini baholash, yoshlarning Sharq va G'arb qadriyatlarini haqidagi bilimlari hamda madaniyatlararo muloqotga munosabatini yuqori, o'rta va quyi darajalar bo'yicha aniqlash mezonlarini ishlab chiqish va bu asosda komparativ yondashuvning amaliy natijalarini tahlil qilish;

yoshlarni tarbiyalashning pedagogik mexanizmlarini modernizatsiyalash, madaniyatlararo kompetentsiyani rivojlantiruvchi interfaol va kognitiv texnologiyalarni Sharq va G'arb pedagogikasidagi axloqiy-aksiologik qadriyatlar

<sup>6</sup> Bear, George G., et al. "Understanding Teacher-Student Relationships, Stu-dent-Student Relationships, and Conduct Problems in China and the United States." International Journal of School & Educational Psychology, Routledge. Available from: Taylor & Francis, Ltd. 325 Chestnut Street Suite 800, Philadelphia, PA 19106.

<sup>7</sup> Chen, Wei-Lin, Daniel Elchert, and Ashi Asikin-Garmager. 2018. "Comparing the Effects of Teacher Collaboration on Student Performance in Taiwan, Hong Kong And Singapore." Compare Online First:1-18.

<sup>8</sup> Comparative Characteristics of Teaching Children and Youth in Ukraine and Japan / Kuchai Tetiana (Ferenc Rákóczi II Transcarpathian Hungarian Institute) // Journal of Vasily Stefanik Prescarpathian National University (2-3). 2014. - p. 282-289.

<sup>9</sup> Confucius' Education Thoughts and Its Influence on Moral Education in China / Gift Muiyunda and Lei Yue // International Journal of Social Learning, Vol. 2 (2), 2022. - p. 250-261.

<sup>10</sup> Education and upbringing as the basis of society improvement / O.S. Kogan and oth. // European Proceedings of Social and Behavioural Sciences, Vol. 117, 2021. - p. 2703-2708.

<sup>11</sup> Галус О.М., Шапошнікова Л.М. Порівняльна педагогіка. - Київ: Вища школа, 2006.

<sup>12</sup> Садова Н. Періоди розвитку порівняльної педагогіки як науки у зарубіжній педагогічній думці // Педагогічні науки. - 2016. - № 66-67. - С. 216-220.

<sup>13</sup> Цельніч М.М. Порівняльна педагогіка: навч. посіб. - Київ: Академвидав, 2014.

<sup>14</sup> Кусайнов А.К., Есеева Н.Т. Методология и методика сравнительной педагогики. - Алматы, 2008.

<sup>15</sup> Донбаева А.В., Танабаева Т.У., Жамансеева Ж.Р., Ермаханова Ш.М., Ермаханова М.Н. Некоторые проблемы сравнительной педагогики // International Journal of experimental education. - 2017. - № 6. - С. 26-29.

<sup>16</sup> Береговая О.А. Философия образования в глобализирующемся мире: компаративный анализ. Дис. ... Д-ра пед. наук. - Новосибирск, 2022.

<sup>17</sup> Плещакова А.Ю. Педагогическая компаративистика идентичности профессионального образования: методология, теория, практика. Дис. ... д-ра пед. наук. - Уфа, 2021

<sup>18</sup> Симушкина Н.Ю. Воспитание в частных школах Великобритании и США в конце XX - начале XXI века: Дис. ... канд-та пед. наук. - Омск, 2016.

<sup>19</sup> Волыикова М.Л. Историко-педагогические аспекты развития теории и практики многокультурного образования в США: Дис. ... канд-та пед. наук. - Ростов-на-Дону, 2001.

<sup>20</sup> Ibraimov X.I. Pedagogical guidelines for a cultural and human-specific approach to education // International Journal of Pedagogics. - 2024. - №2(4). - p.116-121.

<sup>21</sup> Quronov M. Bizniy birlashtirilgan goya. - Toshkent: Gafur Gulom, 2016.

<sup>22</sup> Shodmonova Sh., Ergashev P., Kuchai T. Qadriyatlar va tarbiya. - Toshkent: TDPU, 2005.

<sup>23</sup> Abdullayev Yu.N. Horijdagi oliy ta'limning ixtimoiy-pedagogik xususiyatlarini taqqoslash va taraqqiёт tamoyillari: Ped.fanil.dokt. ... diss. - Toshkent: 2000.

<sup>24</sup> Azizova Z. Maktabgacha ta'limda komparativistik pedagogika. - Andijon: ADU, 2021.

<sup>25</sup> Otamirzayeva K.I. Komparativistik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish pedagogik zaruriyat afidida (O'zbekiston va Germaniya ta'lim tizimini qiyoslash misolida) // Science and innovation. - 2024. - Vol. 3. - Special Issue 41. - P. 505-508.

<sup>26</sup> Mutalipova M.J. Oliy ta'lim pedagogika. - Toshkent, 2016.

<sup>27</sup> Karimov P.P. Paradigmiy filosofiyasidagi komparativistik: Monografiya. - Toshkent, 2021.

<sup>28</sup> Karimov P.P. Funksion traditsiya va traditsionizm in istorii vostochnoy i zapadnoy filosofii: Diss. d. filosofii. (DSc). - Toshkent, 2025.

tizimi bilan integratsiyalash orqali O'zbekiston ta'lim-tarbiya tizimiga tatbiq etish yo'nalishlarini aniqlash.

**Tadqiqot obyektini** zamonaviy Sharq va G'arb ta'lim kontekstidagi yoshlarni tarbiyalash tizimi tashkil etadi.

**Tadqiqot predmeti** sifatida Sharq va G'arb pedagogikasiga komparativistik yondashuv doirasida ko'riladigan yoshlarni tarbiyalash mexanizmlari olingan.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tarixiy-madaniy, tarixiy-pedagogik, komparativistik, tizimli va tarkibiy ilmiy tahlil, germinenvtik usul, sintez, deduksiya va induksiya, sotsiologik tadqiqot usuli, ekspert baholash usuli, shuningdek statistik tahlil usuli kabi usullardan foydalaniladi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

komparativistik yondashuv kontekstida yoshlarni tarbiyalash mazmuni Sharq va G'arb an'analari ifodalovchi turli madaniy-tarixiy muhitda shakllangan pedagogik nazariyalar, mexanizmlar va qadriyatlarini Yangi O'zbekiston tarbiya paradigmasiga ko'ra aniqlashirishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

Sharq va G'arb pedagogikasi kontekstida yoshlarni tarbiyalash strategiyalari madaniyatlararo kompetensiyaga asoslangan dasturiy modellar bilan komparativistik yondashuvning didaktik imkoniyatlari doirasida qadriyatli tarbiya tizimini muvofiqlashtirish asosida takomillashtirilgan;

yoshlarni tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlari Sharq va G'arb pedagogik merosi, milliy an'analarda hamda global ta'lim tendentsiyalarining qiyosiy tahlil qilib borishga ko'ra ta'lim dasturlari, o'qituvchi tayyorgarligi, oila-maktab-mahalla hamkorligi va raqamli ta'lim muhiti bilan muvofiqlashtirish orqali takomillashtirilgan;

tarbiya mexanizmlari samaradorligi yoshlarda Sharq va G'arb pedagogik qadriyatlarini haqidagi bilimlari, madaniyatlararo muloqotga munosabati rivojlanganligining yuqori (bilim va munosabati hayotda qo'llay olish qobiliyati), o'rtacha (bilim va qadriyatni tushunadi, lekin faol amaliyotga to'liq o'tmagan), quyi (bilimga ega, lekin amaliy qo'llanishi cheklangan) darajalarda aniqlashtirish asosida takomillashtirilgan;

yoshlarni tarbiyalashning pedagogik mexanizmlari ta'lim-tarbiya dasturlari kontekstida madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantiruvchi interfaol va kognitiv texnologiyalarni Sharq va G'arb pedagogikasidagi axloqiy-aksiologik qadriyatlar tizimi bilan qiyosiy integratsiyalash orqali takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Sharq va G'arbnig eng yaxshi amaliyotlarini birlashtirgan va O'zbekistonning ko'p madaniyatli ta'lim makoniga moslashtirilgan tarbiyaning innovatsion modeli ishlab chiqilgan va joriy etilgan;

yoshlarning tanqidiy fikrlashini va ijtimoiy moslashuvini rag'batlantirish uchun komparativ yondashuv elementlarini o'z ichiga olgan o'quv dasturlarini modernizatsiya qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan va joriy etilgan;

ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini oshirishga intilayotgan ta'lim muassasalari, pedagogik jamoalar va ta'limni boshqarish organlari uchun foydali bo'lishi mumkin bo'lgan tadqiqot samaradorligi ko'rsatilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchiligi** o'rganilayotgan muammoga falsafiy-komparativistik va ilmiy-pedagogik yondashuv birlashmasida bir qator usullardan foydalanish, muammoni yempirik o'rganish natijalari, shuningdek, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferentsiyalar to'plamlarida chop yetilgan tezislari, OAK ro'yxatiga kiritilgan respublika va xorijiy ilmiy jurnallarda chop yetilgan maqolalar, shuningdek vakolatli muassasalar va tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan ta'minlanadi.

**Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati madaniyatlararo ta'lim jarayonlarini yanada chuqurroq anglash va tarbiya mexanizmlariga madaniy va ijtimoiy omillarning ta'siriga oid pedagogika fanini yangi ma'lumotlar bilan boyitishga xizmat qiladigan komparativistik pedagogika sohasidagi nazariy bilimlarni kengaytirish, shu jumladan mavjud tarbiyaviy yondashuvlarni tizimlashtirish va tahlil qilish, O'zbekiston Respublikasi pedagogikasidagi komparativistik tadqiqotlar metodologiyasining rivojiga hissa qo'shibdan iborat.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati zamonaviy ko'p madaniyatli jamiyatning shart-sharoitlariga moslashtirilgan sinovdan o'tgan tarbiya amaliyotlarining integratsiyasi va komparativistik tahlilga asoslangan innovatsion yondashuv va metodikalarni joriy qilish orqali tarbiya ishlarining samaradorligini oshirish hisobidan ta'lim sifatini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Sharq va G'arb pedagogikasiga komparativistik yondashuv sharoitida yoshlar tarbiyasi mexanizmlarini takomillashtirish jarayonini o'rganish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tadqiqot natijalari asosida:

komparativistik yondashuv kontekstida yoshlarni tarbiyalash mazmuni Sharq va G'arb an'analari ifodalovchi turli madaniy-tarixiy muhitda shakllangan pedagogik nazariyalar, mexanizmlar va qadriyatlarini Yangi O'zbekiston tarbiya paradigmasiga ko'ra aniqlashtirishning maqsadga muvofiqligi asoslanganligiga oid ilmiy xulosada O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2024-yil 16-avgustdagi 2-13-21-4311-son ma'lumotnomasi). Natijada, ta'lim muassasalarida yosh avlodni ma'naviy-axloqiy rivojlantirish va ularga zamonaviy dunyoning ko'p madaniyatli manzarasini ochib berishga qaratilgan chora-tadbirlarni takomillashtirishga xizmat qilgan;

Sharq va G'arb pedagogikasi kontekstida yoshlarni tarbiyalash strategiyalari madaniyatlararo kompetensiyaga asoslangan dasturiy modellar bilan komparativistik yondashuvning didaktik imkoniyatlari doirasida qadriyatli tarbiya tizimini muvofiqlashtirish asosida takomillashtirilganligiga oid ilmiy xulosadan "Fashkent International University of Education" xalqaro universitetining "Ta'lim va ta'lim jarayonlarini boshqarish" bakalavriat ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan

“Maktabda pedagogik menejment”, “Elektron pedagogika” va “Maktabda STEAM-ta’lim” darsliklarini yaratishda o’quv materiallari va talabalarning madaniyatlararo kompetensiyasini shakllantirish metodikasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 28-iyundagi 4/4-4-2102-son ma’lumotnomasi). Natijada, o’quv jarayoni va o’quv materialini takomillashtirishga, shuningdek, turli ta’lim tashkilotlarida ta’limni boshqarish va tarbiyaviy ishlar bo’yicha talabalar va bo’lajak mutaxassislarining madaniyatlararo kompetensiyasini mustahkamlashga xizmat qilgan;

yoshlarni tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlari Sharq va G’arb pedagogik merosi, milliy an’analar hamda global ta’lim tendentsiyalarining qiyosiy tahlil qilib borishga ko’ra ta’lim dasturlari, o’qituvchi tayyorgarligi, oila-maktab-mahalla hamkorligi va raqamli ta’lim muhiti bilan muvofiqlashtirish orqali takomillashtirilganligiga oid ilmiy xulosadan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2024-yil 19-sentabrdagi 03-33-2524-son ma’lumotnomasi). Natijada, ko’p millatli ta’lim muhitida vazirlik faoliyati doirasida tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish hamda pedagog va o’quvchilarning madaniyatlararo kompetentligini rivojlantirishga xizmat qilgan;

tarbiya mexanizmlari samaradorligi yoshlarda Sharq va G’arb pedagogik qadriyatlarini haqidagi bilimlari, madaniyatlararo muloqotga munosabati rivojlanganligining yuqori (bilim va munosabati hayotda qo’llay olish qobiliyati), o’rta (bilim va qadriyatni tushumadi, lekin faol amaliyotga to’liq o’lmagan), quyi (bilimga ega, lekin amaliy qo’llanishi cheklangan) darajalarda aniqlashtirish asosida takomillashtirilganligiga oid ilmiy xulosadan “Tashkent International University of Education” xalqaro universitetining “Pedagogika va psixologiya” bakalavriat ta’lim yo’nalishi uchun “O’quv materiallarini ishlab chiqish” darsligini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 17-sentyabrdagi 4/17-01-03-06/404-son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur ta’lim yo’nalishi doirasida o’quv jarayonini takomillashtirish va talabalarda o’quv materiallarini ishlab chiqishda komparativistik texnologiyani qo’llash ko’nikmalarini shakllantirishga xizmat qilgan;

yoshlarni tarbiyalashning pedagogik mexanizmlari ta’lim-tarbiya dasturlari kontekstida madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantiruvchi interfaol va kognitiv texnologiyalarni Sharq va G’arb pedagogikasidagi axloqiy-aksiologik qadriyatlar tizimi bilan qiyosiy integratsiyalash orqali takomillashtirilganligiga oid ilmiy xulosadan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi faoliyatida foydalanilgan (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2024-yil 21-avgustdagi 10/51-son ma’lumotnomasi). Natijada, Sharq va G’arb pedagogikasida komparativistik yondashuv asosida yoshlarni tarbiyalash mexanizmlari markazning dastur va tadbirlariga singdirilgan hamda ilmiy-nazariy jihatdan asoslashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobativiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 xalqaro va 3 respublika ilmiy-amaliy konferentsiyalarda muhokamadan o’tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan 1 monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 maqola, ulardan 9 respublika va 2 xorijiy jurnallarda e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to’rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 259 betni tashkil etadi.

### DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning fan va texnika rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga muvofiqligi, dissertatsiyaning mavzusi bo’yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o’rganilganlik darajasi, tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy o’quv muassasasining ilmiy tadqiqot rejalarini bilan bog’liqligi, maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti, tadqiqot usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiq etilishi, aprobativiyasi, e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi ko’rsatilgan.

Dissertatsiyaning “Sharq va G’arbda pedagogika faniga komparativistik yondashuvning nazariy-metodologik asoslari” deb nomlangan birinchi bobida komparativistik yondashuv tushunchasi, uning tarixi va tamoyillari; ta’lim sohasida komparativistik yondashuvning paydo bo’lishi va rivojlanishi tarixi; Sharq va G’arbda pedagogika fanida komparativistik tadqiqotlar metodologiyasini ko’rib chiqilgan.

Komparativistik yondashuv ilmiy tadqiqotlardagi asosiy uslubiy yondashuvlardan biridir. Bu o’xshashlik va farqlarni aniqlash uchun turli hodisalar, jarayonlar yoki ob’ektlarni taqqoslashni o’z ichiga oladi. Komparativistik yondashuv uzoq tarixga ega va turli xil bilim sohaslarida keng qo’llaniladi. Shu jihatdan ushbu yondashuvning tarixi va tamoyillari, uni tadqiq qilish usullari, turli sohalarda qo’llanilishi, shuningdek, ushbu yondashuvning asosli tanqidlari va cheklanishlarini ko’rib chiqish kerak.

Komparativistik yondashuv tarixi olimlar va faylasuflar turli davlat tizimlari va siyosiy rejimlarni taqqoslashni boshlagan Antik davrga borib taqaladi. Tarixdagi komparativistik yondashuvning dastlabki misollari orasida Afrotun va Arastu kabi qadimgi faylasuflar va tarixchilar tomonidan olib borilgan Afina va Sparta siyosiy tizimlarini taqqoslash mavjud. Ular ushbu ikki davlatning tuzilishi va faoliyatini tahlil qildilar, ularning siyosiy institutlari va qonunlarini ko’rib chiqdilar, samaradorligi va barqarorligini baholadilar.

Tarixda zamonaviy komparativistik yondashuv faol ishlab chiqilmoqda va qo'llanilmoqda. Olimlar va tadqiqotchilar turli xil tarixiy hodisalar va jarayonlarni taqqoslaydilar, ularning jamiyat va madaniyatga ta'sirini o'rganadilar, umumiy qonuniyatlar va tendentsiyalarni aniqlaydilar. Komparativistik yondashuv tarixiy voqealar va jarayonlarni chuqur tushunishga, shuningdek, kelajakdagi rivojlanish uchun xulosa va tavsiyalar berishga imkon beradi. Bu tarix fanining ajralmas qismi bo'lib, uning rivojlanishi va taraqqiyotiga hissa qo'shadi.

Komparativistik yondashuv qiyosiy tadqiqotlarni yuqori darajadagi ishonchlilik va obyektivlik bilan o'tkazishga imkon beradigan bir necha tamoyillarga asoslanadi. Mazkur yondashuvning asosiy tamoyillaridan biri bu **nazorat tamoyili**. Bu shuni anglatadiki, tadqiqotchi taqqoslash natijalariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha omillarni nazorat qilishi kerak. Yana bir tamoyil - bu o'xshash xususiyatlar va shartlarga ega bo'lgan qiyosiy birliklarni tanlashni o'z ichiga olgan **taqqoslash tamoyili**. Bundan tashqari, yana bir muhim tamoyil - bu taqqoslash natijalariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan kontekstual omillarni hisobga olish va tahlil qilishni o'z ichiga olgan **kontekstualizatsiya tamoyili**.

Komparativistik tahlilning barcha ko'rib chiqilgan xususiyatlarini nazariy tadqiqot metodologiyalari chegarasidan tashqariga olib chiqadi. Qiyosiy tadqiqotlar o'quv jarayonida talabalar o'rtasida o'xshash bilim tuzilmalari va analitik amaliyotlarni rag'batlantirish va shakllantirishning eng muhim vositasi bo'lib chiqadi. Kontekstli fanlararo fikrlash, mavzuni keng ko'lamda ko'rish, voqelikni muammolashtrish, shuningdek nazariy modellar va analitik amaliyotlarning qiymatini tahlil qilish - bularning barchasi analitik kasbiy kompetentsiyalarning, birinchi navbatda gumanitar mutaxassisliklar talabalarining muhim qismini tashkil yetadi.

Zamonaviy oliy ta'lim amaliyotiga komparativistik nafaqat gumanitar tadqiqotlarning mavhum o'rganilgan metodologiyasi sifatida, balki bunday kursning mazmuni va tuzilishini to'g'ri tashkil etadigan ta'lim tamoyili sifatida joriy etish, hatto mavhum gumanitar fanlar uchun ham bilimlarning amaliy yo'nalishini va qo'llanilishini amalga oshirishga imkon beradi.

Ta'limdagi komparativistik yondashuv turli xil ta'lim tizimlarini tahlil qilish va taqqoslash uchun kuchli vosita bo'lib, ularning kuchli tomonlari va kamchiliklarini aniqlashga, shuningdek, eng yaxshi amaliyot va o'qitish usullarini aniqlashga imkon beradi. Ushbu yondashuv turli xil ta'lim tizimlarini taqqoslash, Sharq va G'arbning turli mamlakatlarida ta'lim sifatini oshirish uchun eng optimal yechimlarni izlash zarurati natijasida paydo bo'ldi. Bu jihatdan ta'lim sohasidagi komparativistik yondashuvning rivojlanishi haqida tarixiy ma'lumot berish, shuningdek, undan foydalanishning dastlabki misollarini ko'rib chiqish kerak.

Ta'limdagi qiyosiy yondashuv tarixi 19 asrning oxirida, turli mamlakatlarda turli xil ta'lim tizimlarini taqqoslash zarurati tug'ilganda boshlanadi. O'sha paytda ko'plab mamlakatlar ta'lim sohasida savodxonlik darajasi pastligi, malakali o'qituvchilarning yetishmasligi va samarasiz o'qitish usullari kabi muammolarga duch kelishdi. Shu munosabati bilan, eng muvaffaqiyatli amaliyot va usullarni

qo'llash uchun boshqa mamlakatlarning ta'lim tizimlarini o'rganish va tahlil qilish zarurati vujudga keldi.

Ta'limda komparativistik yondashuvdan foydalanishning dastlabki misollaridan biri XVI asrda frantsuz faylasufi Mishel Monten tomonidan olib borilgan tadqiqot yedi. "Farzand tarbiyasi haqida" deb nomlangan asarida u turli xil ta'lim tizimlarini, shu jumladan davlat maktablari, xususiy ta'lim muassasalari va uyda o'qishni taqqoslad<sup>29</sup>. U har bir tizimning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qildi va o'qitishning eng samarali usullari to'g'risida xulosalar chiqardi.

Komparativistik tahlilga asoslangan xalqaro ta'lim tadqiqotlari zamonaviy ta'lim amaliyotida muhim rol o'ynaydi. Ular turli mamlakatlardagi ta'lim tizimlarini taqqoslash, muvaffaqiyatli ta'lim strategiyasi va usullarini aniqlash, turli mamlakatlardagi ta'lim tizimlari duch keladigan umumiy tendentsiyalar va muammolarni aniqlash imkonini beradi.

Fabafiy komparativistika ta'limning qiyosiy falsafasi uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Qiyosiy tadqiqot metodologiyasi "har bir falsafiy madaniyat va tizimdagi ma'naviy qadriyatlar tizimini chuqur anglashga asoslangan"<sup>30</sup>. Komparativist N.Xens "boshqalarning tajribasiga murojaat qilish o'z ta'limini yaxshiroq isloh qilishga imkon beradi"<sup>31</sup> deb hisoblagan. Bularning barchasi kamchiliklarni aniqlashga va islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilashga xizmat qiladi.

Komparativistik ta'lim tadqiqotlariga murojaat qilish quyidagilarga imkon beradi: o'z ta'lim tizimini, uning tendentsiyalari va muammolarini yaxshiroq tushunish;

- boshqa madaniyatlar va sivilizatsiyalarni o'rganish uchun intellektual va nazariy ehtiyojni qondirish;

- ta'lim va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni yaxshiroq tushunish;

- to'plangan global ta'lim tajribasini hisobga olgan holda ta'lim siyosati va amaliyotini rivojlantirish;

- bag'rikenglikni oshirish orqali xalqaro o'zaro hamkorlikni takomillashtirish, boshqa madaniyatlarga hurmat tuyg'usini rivojlantirish;

- o'zgaruvchan geosiyosiy voqelikni, shuningdek, gumanitar va ijtimoiy fanlar sohasidagi nazariy va paradigmal o'zgarishlarni hisobga olgan holda keng dunyoqarashni shakllantirish.

**Globallashtiruv, migratsiya va texnologiyaning jadal rivojlanishi** kabi zamonaviy muammolar ta'lim tizimlarini komparativistik tahlil qilishda yangicha yondashuvlarni talab qilishga e'tibor qaratish lozim. Kelajakda komparativistik yondashuv yanada ko'proq talabga ega bo'lishi mumkin, chunki Sharq va G'arb mamlakatlari ta'lim sohasida tobora ko'proq hamkorlik qiladi va tajriba almashadi.

Sharq pedagogika fanida komparativistik tadqiqotlar rivojlanishining o'ziga xos tarixiga yega. Sharq olimlari, shuningdek, turli ta'lim tizimlari va pedagogik

<sup>29</sup> Moutrens M. J. Ouzru. - Moscow: Avdyka, 2022. - C.550.

<sup>30</sup> Raju P. I. Comparative Philosophy and Spiritual Values: East and West // Philosophy East and West. Available: <https://www.jstor.org/stable/397317>.

<sup>31</sup> Hans N. English Pioneers of Comparative Education // <https://www.jstor.org/stable/3119436>.

amaliyotlarning komparativistik tahlilini o'tkazdilar, ularning xususiyatlari va samaradorligini o'rgandilar.

XX asrning ikkinchi yarmi - XXI asrning boshlarida postkolonial mamlakatlardan G'arbga va dunyoning boshqa mintaqalariga kishilarning ko'chishi ularni nafaqat ko'p madaniyatli, balki turli dunyoqarashlik holga keltirdi, bu esa boshqa falsafiy madaniyatlarga o'zlarini dunyoning qolgan qismiga namoyon qilishga imkon berdi. Bu jarayon ma'lum bir dunyoqarash shakllanishini endi yevropotsentristik qarash (monolog) prizmasi orqali emas, balki ikki (ko'p) madaniyatlar (dialog (polilog)) uchrashuvi sifatida dolzarblashtiradi.

Sharq va G'arbda pedagogika fanida komparativistik tadqiqotlarning xususiyatlari batafsil ko'rib chiqildi. Sharqda pedagogika fanidagi komparativistik tadqiqotlar ko'pincha ta'lim, madaniyat va tarixning milliy xususiyatlarini o'rganish bilan bog'liq. Sharqdagi asosiy tadqiqot usullari hujjatlarni tahlil qilish, statistik ma'lumotlarni taqqoslash va sifatli intervyularni o'z ichiga oladi.

G'arbda pedagogika fanidagi komparativistik tadqiqotlar ko'pincha ta'lim tizimlari va amaliyotining samaradorligini o'rganish bilan bog'liq. G'arbdagi asosiy tadqiqot usullariga ma'lumotlarni tahlil qilish, tajribalar va so'rovlar kiradi.

Umuman olganda, pedagogika fanida komparativistik tadqiqotlar uzoq rivojlanish tarixiga ega va muhim uslubiy yondashuv yecanligini ta'kidlash mumkin. Bu turli xil ta'lim tizimlarini taqqoslash, ularning xususiyatlari va samaradorligini aniqlash, shuningdek, o'qitishning eng samarali usullarini aniqlash imkonini beradi. Sharqda pedagogika fanida qiyosiy tadqiqotlarning rivojlanishi uning G'arbdagi rivojlanishi bilan parallel ravishda sodir bo'ldi hamda Sharq va G'arb olimlari o'rtasidagi faol hamkorlikni o'z ichiga oldi. Bugungi kunda komparativistik tadqiqotlar faol rivojlanishda davom etmoqda va ham Sharqda, ham G'arbda pedagogika fanining muhim sohasi bo'lib qolmoqda.

Dissertatsiyaning "**Sharq va G'arb pedagogikasida tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari**" deb nomlangan ikkinchi bobida quyidagilar ko'rib chiqilgan: ijtimoiy-madaniy jarayonlarning shaxsning tarbiya jarayoniga ta'siri; Sharq va G'arbdagi tarbiya jarayonlarining o'xshashliklari va farqlari; Sharq va G'arb usullarining zamonaviy ta'limda ko'llash samaradorligi.

Ijtimoiy-madaniy jarayonlarning shaxsiy qadriyat yo'nalishlarini shakllantirishga ta'siri zamonaviy psixologiya va sotsiologiyaning muhim muammolaridan biridir. **Shaxsiy qadriyat yo'nalishlari** - bu inson hayotining maqsadlari va ma'nosini, uning xatti-harakati va tanlovini belgilaydigan barqaror e'tiqodlar, qadriyatlar, ideallar, me'yorlar va qoidalar tizimi. Ular ijtimoiy-madaniy muhit bilan o'zaro ta'sir jarayonida shakllanadi va tarixiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa omillar ta'sirining natijasidir.

Ijtimoiy-madaniy omillar shaxsning ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Boshqa kishilar bilan muloqot qilish, ijtimoiy-madaniy me'yorlar va qoidalarni qabul qilish, jamiyat hayotida ishtirok etish - bularning barchasi shaxsning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, ijtimoiy-madaniy jarayonlar shaxsning ijtimoiy sohasini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Shaxsning o'ziga xosligini shakllantirish jarayonida

ijtimoiy-madaniy omillar muhim rol o'ynaydi. Jamiyatda qabul qilingan madaniy an'analar, qadriyatlar, tasvirlar va ramzlar insonning o'ziga xosligini shakllantirishga ta'sir qiladi. Shaxs umume'tirof etilgan me'yorlar va qadriyatlariga moslashishga intiladi, bu esa uning individualligi va o'ziga xosligini shakllantirishga hissa qo'shadi.

Tarbiya nazariyasida tarbiya tushunchasi haqida aniq va yagona ta'rif mavjud emas. K.D.Ushinskiy ta'kidlaganidek: "tarbiya san'atining o'ziga xos xususiyati shundaki, u deyarli hamma uchun tanish va tushunarli, hatto boshqalarga ham oson ko'rinadi va qanchalik tushunarli va osonroq ko'rinadi, odam nazariy yoki amaliy jihatdan u bilan shunchalik kam tanish bo'ladi. Tarbiya sabr-toqatni talab qilishini deyarli hamma tan oladi; ba'zilar tug'ma qobiliyat va mahorat, ya'ni mahorat talab qiladi deb o'ylashadi; ammo juda ozchilik sabr-toqat, tug'ma qobiliyat va mahoratdan tashqari, maxsus bilim ham zarur degan xulosaga kelgan..."<sup>32</sup>

Zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitda tarbiya o'zaro bog'liq bo'lgan ikkita maqsadga erishishga yo'naltirilishi kerak - zamonaviy sharoitda yosh avlodning ijtimoiylashuvi va shaxsning faoliyat sub'ekti sifatida, inson va individuallik sifatida o'zini o'zi rivojlantirishi. Tarbiyaning asosiy mazmuni pedagogik yordam, qo'llab-quvvatlash va kuzatish texnologiyalari va vositalariga asoslangan ijtimoiylashuv va o'z-o'zini rivojlantirish jarayonini ta'minlashdan iborat.

Tarbiya - bu inson tomonidan me'yor va qoidalarni ichki qabul qilish va uning natijasi ushbu me'yorlarni shaxsiy me'yorlarga aylantirishdir. Tarbiya - bu uzoq jarayon, e'tiqod tizimi yoshlarda rivojlanadi, lekin g'oyalari va tushunchalari erda belalikkandan, birinchi navbatda, albatta, oilada, keyin esa ta'lim tashkilotida shakllanadi. Tarbiyaning strategik maqsadi demokratik jamiyat fuqarosini hamda ijtimoiy va shaxsiy taraqqiyot manfaatlari yo'lida shaxsiy salohiyatini kuchaytirish va amalga oshirishga qodir bo'lgan har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash, boshqacha aytganda, g'olibni tarbiyalashdir.

Tarbiya va ijtimoiy-madaniy jarayonlar o'zaro bog'liqdir. Ta'lim nafaqat jamiyatning ijtimoiy-madaniy me'yorlari va qadriyatlarini aks ettiradi, balki uning rivojlanishiga ham ta'sir qiladi. Masalan, tarbiya madaniy va ijtimoiy qadriyatlarini shakllantirishda, shuningdek, yangi bilim va texnologiyalarni yaratishda muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib, ijtimoiy-madaniy jarayonlarning ta'lim jarayoniga ta'siri murakkab va xilma-xildir. U tarbiyaning mazmuni va usullarini belgilaydi, shuningdek, butun jamiyat rivojlanishiga ta'sir qiladi. Shuning uchun samarali ta'lim olish uchun ijtimoiy-madaniy jarayonlarning barcha jihatlarini hisobga olish va ular o'rtasida muvozanatni topish muhimdir.

Sharq va G'arbdagi tarbiya jarayonlarining o'xshashliklari va farqlari zamonaviy jamiyatda dolzarb tadqiqot mavzusi hisoblanadi. Yoshlar tarbiyasi jamiyat taraqqiyotining muhim jihati bo'lib, unga turli madaniy yondashuvlarni o'rganish bu jarayonlarni yaxshiroq tushunish va baholashga yordam beradi. Dunyoning turli xalqlarining yoshlarni tarbiyalash tizimlari sezilarli darajada farq

© Ушенин К.А. Человек как предмет воспитания. Опыт педагогической антропологии. - Санкт-Петербург: Изд. СПбГУ, 2013. - С.130.

qiladi. Ushbu farqlarga ko'plab omillar ta'sir qiladi: mentalitet, din, turmush tarzi va hatto iqlim sharoiti.

Insonparvarlik, mustaqillik va individuallik - pedagogikaning ushbu asosiy tamoyillari dunyoning barcha mamlakatlari uchun bir xildir. Ammo har bir xalq tushunchalarga o'z ma'nosini olib keladi va turli xil jihatlarni diqqat-e'tibor markaziga qo'yadi. Bugungi kunda esa mamlakatlar bir-birining tarbiyalashning turli usullarini o'rganish va o'z ta'lim tizimida joriy qilish modaga aylandi.

Ta'lim va tarbiya Sharq va G'arbda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Sharq mamlakatlari akademik muvaffaqiyatlarga katta ahamiyat berishadi va o'z farzandlariga eng yaxshi ta'lim berishga intilishadi. Sharqda ota-onalar ko'pincha farzandlaridan yuqori ilmiy natijalarga erishishlarini kutishadi va shuning uchun ularning ta'limiga ko'p vaqt va mablag' sarflashadi. G'arb mamlakatlari, o'z navbatida, ijodiy va tanqidiy fikrlash, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga ko'proq e'tibor berishadi. G'arbda ota-onalar odatda farzandlarining ta'lim tanlovini qo'llab-quvvatlaydilar hamda ularning shaxsiy qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berishadi.

Sharq va G'arbdagi ta'lim jarayonlaridagi zamonaviy muammolar globallashtirish, texnologik rivojlanish va o'zgaruvchan ijtimoiy tuzilmalar bilan bog'liq. Ko'proq oilalar ish va oilaviy hayot o'rtasidagi muvozanat, shuningdek, ommaviy madaniyatning yoshlar tarbiyasiga ta'siri bilan bog'liq muammolarga duch kelmoqdalar. Sharq jamiyatlari globallashtirish va G'arb madaniyati sharoitida an'analar va qadriyatlarini saqlash bilan bog'liq muammolarga duch kelmoqdalar. G'arb jamiyatlari, o'z navbatida, bolalar o'rtasida stress va depressiya darajasining oshishi, shuningdek, texnologiya va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish bilan bog'liq muammolarga duch kelishmoqda.

